

AGIOGRAFIK ASARLAR “NAJHUL FARODIS” ASARI MISOLIDA

*Guliston davlat universiteti
Filologiya fakulteti filologiya va tillarni
o'qitish o'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich
talabasi Xidirova Turg'unoy*

Annotatsiya: Agiografik asarlar mazmun va mohiyati, uning boshqa turdagi asarlardan farqi xususida ma'lumotga ega bo'lamiz.

Kalit so'zlar: Agiografik asar, prototip obraz, sayyor syujet, etiqodiy qarashlar, "Qissasi ul-anbiyo"lar turkumi, "Najhul-farodis".

Adabiyotshunoslikda mavzu va mohiyatiga ko'ra asarlarni turli janrlarga bo'lib chiqamiz. Xususan, didaktik asarlar sirasiga kirituvchi "Qobusnoma", "Qutadg'u bilig" kabi namunalar darhaqiqat didaktik ya'ni pand-nasihathunohida yozilgan, bularda kishini tarbiyalovchi, poklovchi g'oya va manbalar mavjud. Unda nima qilish kerak, ma'lum vaziyatlarda qanday yo'l tutish zarur va har bir ishda odob saqlash zarurligi keltirilib, misollar bilan birgalikda nasihat qilinadi. Bunday asarlarni xalqchil qilib aytganda "otalar so'zi" desak ham adashmagan bo'lamiz. Mana shunday o'z ichida tashiyatgan ma'lumotiga ko'ra Agiografik asarlar ham mavjudki, bunday badiiy asar namunalarida e'tiqodiy qarashlar asosiy yetakchilik qiladi. Bu shuni anglatadiki, kishi yozayotgan asarlarida e'tiqodi nuqtayi nazaridan barchaga ma'lum kishilar hayotini aks ettiradi, vaziyatlarga taalluqli joylarda uni namuna sifatida keltirib, hayotidan parcha keltiradi, etiqodiga tegishli bo'lgan buyum, hayvon va yoki tabiat hodisalarini ham jonlantiradi. Bunday namunalar asosan muqaddas kitoblar asosida yaratiladi, afsonalarga tayanadi, shu holatni sayyor syujet tarzida o'z asarida akslantiradi, lekin shunisi bilan bir biridan farqlanadiki, albatta o'sha ijodkor tomonidan qo'shilgan, asar mazmunini o'zgartirib yubormaslik uchun puxta o'ylangan o'zgartirish kiritadi. Nega puxta o'ylangan? Chunki barchaga ma'lum va mashhur voqealar rivojini buzish, hayotda yashab o'tgan deb qaraluvchi insonlar haqida noto'g'ri ma'lumot berish orqali yo shu obrazdan o'quvchi ko'nglini qoldiradi, yo yozuvchining o'zi o'quvchilar oldida bepurt bo'lib qoladi. Shu jihatlari ko'ra prototip asosida yaratilgan obraz desak ham bo'ladi. Agiografiya so'zi ruschadan avliyolar qissasi deya tarjima qilinadi. Bunday turdagi asarlarda payg'ambar, sahobalar va shu kabi diniy kishilar haqida, ular orqali yetib kelgan malumot, hadislar, hadislarida aks etgan kishilar haqidagi malumotlar keltirib o'tiladi. Shuni ta'kidlash zarurki bunday janr talmeh badiiy san'atdan farqli jihati mavjud. Bu farq shundaki, talmehda aynan mashhur obrazlarning ismigina aytib o'tilsa, Agiografik asarda o'sha mashhur obrazning hayoti, yoki mashhur ishlari to'liq akslantiradi, boshidan hikoya qilinadi. Mana shunday asarlar sirasiga "Qissasi Rabg'uziy", "Najhul farodis", "Tarixi anbiyo va hukamo" va boshqa shu kabi asarlarni keltirish mumkin. Agiografik asarlar haqida chuqurroq ma'lumot olish uchun "Najhul farodis" asarini tahlil qilib ko'ramiz. Bu asar XIV va XV asrlarda yashab ijod qilgan Sayfi Saroyi qalamiga mansub asar hisoblanib, to'rt bob va har bir bobdagi o'nta fasl jami qirq fasldan iborat. Asarda qirq hadisga sharhlar keltiriladi va asarning diqqatga sazovor taraflari ana shu

hadislar deb hisoblashadi. Nasim Rahmonov O'zbek adabiyoti tarixi asarida ***“Bu asar “Qissas ul-anbiyo” lar turkumiga, ya’ni Agiografik asarlar turkumiga kirsam ham ,payg‘ambarlar tarixi bayoniida afsonalar emas, balki tarixiy voqealar, rivoyatlar asosiy o‘rin egallaydi. Qolaversa, “Najhul farodis”ni yozishda muallif turli ishonchli manbalarga tayangani uchun ham asarga ko‘p allomalar murojaat etgan”*** deya yozadi. Bundan shuni anglash mumkinki, Agiografik asarlar asosan payg‘ambarlar va sahobalar tarixi bayoniga qurilgan afsonalardan, hikoyat va rivoyatlardan iborat bo‘lar ekan-u, “Najhul farodis” da esa aynan tarixiy voqealarning, rivoyatlarning o‘zi asosiy o‘rin egallaydi. Asarda hadislar murojaat etgan muallif hadisning to‘g‘ri yoki yolg‘onligiga asosiy e’tiborni qaratadi. Shu jihatlariga ko‘ra ***“Qissasi Rabg‘uziy “asarini ko‘rsak, bunda ham Rabg‘uziy asardagi holatlarga to‘liq qo‘shilib, keltirgan misollarga moyillik bildirmaydi, aksincha asl manbalardan bu holatlarni topib keltirib o‘tadi va xulosani o‘quvchining o‘ziga qoldiradi. Najhul farodis ham ishonchli manbalarni, sahih va nosahih hadislarini izlaydi, izlanadi.”*** Najhul farodis”dagi aynan qaysi jihat agiografikaga sabab bo‘lishi aytib o‘tdik. Birinchi bobida Payg‘ambar Muhammada alayhissalomga atalgan. Ikkinchi bobida Abu Bakr Siddiq haqida ma’lumot beriladi. Bu ma’lumot va hikoyatlarda muallif payg‘ambar va xalifalar, har fasl qahramonlarining hayotidagi muhim va barchaga o‘rnak bo‘larli holatlarni keltirib o‘tadi. Hikoyatlarda didaktikada to‘xtalib, ular timsolida oila, ijtimoiy hayot odoblari ham keltirib o‘tiladi. Agiografik asarlar haqida chuqurroq ma’lumot berish va izlanishlar olib borilgan va turli bu turdagi asarlar tahlil qilingan. Jumladan, FarDU adabiyotshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi Sayidolimov Javohir o‘z izlanishlari davomida ***“Agiografik asarlar biografik xususiyatini namoyon qilgani uchun ijodkor aniq faktlarga murojaat qilgan holda o‘quvchiga o‘z uslubidan kelib chiqqan holda badiiy yo‘sinda yetkazib beradi”*** degan xulosaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, Agiografik asarlar adabiyotshunoslikda keng qiziqishga sabab bo‘lgan, barchaga tushunarli va ma’lum hodisalarni o‘zgacha sayqallangan tarzda, hech bir voqeani chetda qoldirmay, unga o‘quvchiga ibrat bo‘lishi uchun yuklama berib, etiqodiy qarashlarni to‘g‘ri shakllantirishga sabab bo‘luvchi asarlardir. Bu asosan sharq adabiyotida kengroq o‘rganilgan va muhokama qilinib kelinayotgani ham bejiz emas albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1. Nasimxon Rahmonov. “O‘zbek adabiyoti tarixi”. “Sanohstandart” nashriyoti. Toshkent-2017***
- 2. “Agiografik obrazlarning mazmun mohiyatidagi evrilishlar” - Sayidolimov Javohir-- Cyberleninka.ru***